

**AHOLI SALOMATLIGI VA SOG'LOM TURMUSH TARZI –
IJTIMOIY DAVLAT BELGISI**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,
„Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi”
kafedrasini o'qituvchisi **Usarov Husniddin***

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi salomatligi va sog'gom turmush tarziga oid qonun, normalar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, inson qadri, tibbiy yordam, “Kafolatlangan xizmatlar paketi”, sog'gom turmush tarsi.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lif, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lган, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda “Asosiy qonunimizda “O'zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki “inson qadri” tushunchasi “ijtimoiy davlat” tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu g'oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug'lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassamdir”, - deb ta'kidlagan edi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida “O'zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyili mustahkamlandi.

Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog'liq normalar 3 barobarga ko'paytirilib, ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari belgilandi.

Birinchidan, Konstitutsiyamizda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

to'lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta'minlash hisobga olinishi alohida belgilandi.

Ikkinchidan, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha majburiyatlari Konstitutsiya normasi darajasida mustahkamlandi.

Uchinchidan, fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo'lgan huquqlari belgilanmoqda va davlatning ta'limning barcha shakllariga g'amxo'rlik qilishi, inkluyuziv ta'limni ta'minlashi, o'qituvchining maqomiga oid normalar mustahkamlandi.

To'rtinchidan, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga oid yangi qoidalar o'rnatildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy davlat tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan yangi vazifa va vakolatlari belgilandi. Umuman olganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida davlatning ijtimoiy majburiyatlari uch baravardan ortiqqa ko'paydi.

O'zbekistonni ijtimoiy davlat deb belgilash – ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy xizmatlar va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, ayniqsa, ijtimoiy himoyalanmagan yoki ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash orga munosib turmush sharoitini yaratishga xizmat qiladi.

Salomatlik insonning birlamchi ehtiyoji va istagidir. Faqatgina sog'lom xalq, barkamol millat buyuk ishlarga qodir bo'ladi.

Shu bois yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasida aholi salomatligini asrash bilan bog'liq normalar 4 barobar ko'paytirildi. Xususan, 48-moddada "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli"¹, degan mazmundagi hayotiy norma mustahkamlandi. Ushbu normaga ko'ra: birinchidan, ilk marotaba fuqarolarning sog'lig'ini saqlash huquqi Konstitutsiya darajasida belgilandi. Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash huquqini ta'minlash maqsadida birlamchi va

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.:O'zbekiston.,2023
www.tadqiqotlar.uz

ixtisoslashgan tibbiy xizmatni aholiga yaqinlashtirish, mamlakatimizda sog'lom tur mush tarzini targ'ib qilish, profilaktik choralarni kuchaytirish, tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy qilish, xususiy sog'liqni saqlash tizimini kengaytirish, tibbiy xizmatni raqamlashtirish kabi tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2023 yilning hozirgi davriga qadar tibbiyat sohasiga byudjetdan 29 trillion so'm yo'naltirildi, bu mablag' 2016 yilga nisbatan 5 barobar ko'pdır. O'tgan besh yilda shifoxonalar va tez tibbiy yordam punktlarini dori-darmon, tibbiyat buyumlari bilan ta'minlash uchun mablag'lar 12 barobar ko'paytirildi.

Xususan, qishloqlardagi 801 ta oilaviy poliklinika zamonaviy tashxis apparatlari bilan ta'minlandi. Bu orqali qishloq va mahallalarda 8 turdag'i yangi tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yildi. 23 ta ixtisoslashgan tibbiyat markazlarining barcha hududlarda filiallari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Joriy yilda "Kafolatlangan xizmatlar paketi" qayta ko'rib chiqilib, 20 turdag'i kasalliklar bo'yicha diagnostika, davolash va profilaktika xizmatlari hajmi to'liq qamrab olinadi. Ko'p uchraydigan 20 turdag'i kasalliklar bo'yicha birlamchi bo'g'indagi bepul tibbiy tahlil turlari – 15 tadan 25 tagacha, tekshiruvlar – 10 tadan 20 tagacha, dorilar – 64 tadan 90 taga oshiriladi.

Bularning barchasi yurtimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan amaliy choralardir.

Ikkinchidan, fuqarolarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan ko'rsatilishi aholi salomatligi uchun muhim ijtimoiy ko'mak hisoblanadi. Hozirda aholi uchun tibbiy yordamning kafolatlangan bepul hajmi doirasiga shoshilinch tibbiy yordam, bir qator yuqumli kasalliklar bo'yicha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar va xavfli kasalliklar bo'yicha ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish kiradi. Davlat hisobidan kafolatlangan tibbiy xizmatni rivojlantirish maqsadida 2021 yildan boshlab birlamchi bo'g'inda aholini 66 turdag'i, 2022 yilda 120 turdag'i dori vositasi va tibbiy buyumlar bilan bepul ta'minlash yo'lga qo'yildi. Ixtisoslashgan markazlarda bepul davolanadigan kasalliklar ro'yxati shakllantirilib, tibbiy yordam uchun yo'llanma elektron navbat asosida berilmoqda. Eng muhimi, bu tizimga asosan, mablag'lar shifoxonaga emas, balki aniq bemorga ajratilmoqda.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Sog'lig'ini saqlash va kafolatlangan tibbiy yordamga oid normaning belgilanishi aholi sog'lig'ini ishonchli muhofaza etish hamda aholi, onalar va bolalar o'limi, yuqumli kasalliklar tahdidini bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi.

Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, har bir fuqaroning sog'lig'ini asrabavaylash, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish ijtimoiy davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Ayni shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasining 48-moddasida "Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi"², degan muhim norma mustahkamlandi.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, salomatlikning 50 foizi turmush tarziga bog'liq, qolgan ta'sir omillari – atrof-muhit, genetika, sog'liqni saqlash xizmatlari hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarzi deganda, jismoniy salomatlik va uzoq umr ko'rishni ta'minlaydigan odamlarning xatti-harakatlari tushuniladi. Bu esa mehnatni dam olish va sport bilan uyg'unlashtirishni, to'g'ri ovqatlanishni, zararli odatlardan (chekish va spirtli ichimliklar) voz kechishni talab etadi.

Shu bois 2019 – 2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasida ham jamiyatda sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishni keng targ'ib qilish, fuqarolarda o'z salomatligi va atrofdagilar sog'lig'i uchun javobgarlik hissini shakllantirish, shuningdek ularning madaniyati va tibbiy savodxonligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

Konstitutsiyamizga kiritigan mazkur qo'shimchaga ko'ra:birinchidan, endilikda davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. Jumladan, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida chekka hududlar va qishloqlarda sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish, yoshlarni, tashkilotlar xodimlarini, ayollarni, nogironligi bo'lgan shaxslarni sport tadbirlariga jalb qilish, sport ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash belgilangan. Ushbu yo'nalishda davlat tomonidan 22 sentyabr "Xalqaro avtomobilsiz kuni" deb e'lon qilingan. Ayollarni sportga jalb

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.:O'zbekiston.,2023
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qilish maqsadida “Bahor malikalari” sport musobaqlari, 50 yoshgacha bo’lgan uybekalari hamda 10 yoshgacha bo’lgan qizlar o’rtasida “Gimnastrada” sport festivalini o’tkazish hamda sportga keng targ’ib qilish choralar amalga oshirilmoqda;

ikkinchidan, davlat aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shu maqsadda, 2020–2025 yillarda aholida sog’lom ovqatlanish odatini shakllantirish bo’yicha chora-tadbirlar Dasturi amalga oshiriladi. “Sog’lom turmush tarzi” platformasi ishlab chiqilgan, har bir hududda pul mukofoti bilan rag’batlantirilgan “Sog’lom turmush tarzi rivojlangan mahalla” tanlovlari tashkil etiladi. Endilikda bu kabi tadbirlarni amalga oshirish davlatga konstitutsiyaviy vazifa sifatida belgilandi.

Mazkur normaning kiritilishi jamiyatimizda sog’lom turmush tarzini hayotiy zaruratga aylantirishga, keng aholimizni, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan shug’ullanishga keng jalb etish hamda o’sib kelayotgan avlodni uyg’un ravishda ma’naviy va jismoniy kamol toptirishga xizmat qiladi.